

“SHO’X IKKI G’IZOLINGNI” G’AZALIDA SHE’RIY SAN’ATLAR

Otajonova Madina - Nukus DPI talabasi
Xanmuratova Sayyora - Nukus DPI talabasi

Ko’p asrlik tarixga ega bo’lgan adabiyotimizda badiiylik masalasi har doim ijod ahlining diqqat markazida bo’lib kelgan. U yoki bu so’z san’atkori salohiyati haqida so’z borganda uning nimani tasvirlagani emas qanday tasvirlagani e’tiborga olingan. Har qanday ijodkor asarlarida badiiy san’atlardan foydalanishi uning mahorati bilimdonligini belgilab beruvchi mezonlardan biri sanalgan. O’zbek g’azaliyoti tarixiy tajribalarining eng yuksak natijalari Alisher Navoiy g’azaliyotida mujassamlashgan. G’azal badiiyati – mazmun va shakl birligi, mutanosibliigi mahsulidir.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy bobomiz har bir g’azallariga olam-olam ma’no yuklaydi. Kutilmagan ohoriy jozibador ifoda, bayon tasviriy vositalardan keng foydalanadi, qalamining kuchini ko’rsatadi. Shoir g’azalning mazmuniga mutanosib, sho’x va oynoqi ohang tanlaydi. G’azalning klassik qo’shiqqa aylanishi va xalqqa sevimli, manzur bo’lishida ham mana shu shakl hamda mazmunning badiiy mutanosibliigi boisdur. An’anaviy yetti baytdan iborat Sho’x ikki g’izolingni g’azali

Sho’x ikki g’izolingni noz uyqusidin uyg’at,

To uyqulari ketsun, gulzor ichida o’ynar.

Navoiy ushbu g’azalining matlasida g’izol ya’ni kiyik deya yorning ikki ko’zini tasvirladimi yo ikki o’rim sochi haqda gap ketyaptimi?. Agar g’izol ko’z deydigan bo’lsak, kiprik va qoshlar gulzor misolida bo’lib yorning ikki ko’zi ochilib yopilishi ohuning o’yiniga qiyoslanishini ham faraz deya qabul qilish mumkin. Ammo mumtoz adabiyotda yorning kipriklari kamonning o’qi va qoshlari shu o’qni yor qalbiga joylashga shaylangan kamon deya tasvirlanganini hisobga olsak navoiy bu o’rinda g’izol deya ko’zni emas sochni tariflaganini teranroq anglashimiz mumkin. Ushbu fikrning dalilini keyingi misralarda aniqroq tushunib olamiz. Oshiq yorning ikki o’rim sochiga ishqi tushgani va ularning yor uyquga ketgan ondagi buralib turishini xuddi qizlarning uyaliq noz qilayotganiga o’xshatmoqda, shu o’rinda yorga murojaat qilib ularni uyg’ot, silkit sening ruxsoring bir gulzor bo’lsa ikki o’rim soching ikki arab ohusi kabi yuzing atrofida o’yinga tushib, oshig’ing dilini xushnud etsinlar deb, mashuqaga murojaat etayotgan deb tushunish mumkin.

Bu baytda noz uyqusi-tashxis san’atini yuzaga keltirgan. Tashxis (jonlantirish) hayvonlar, qushar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko’chirish san’atidir. Shu xilda tasvirlash vositasida she’riy asar muallifi ilgari surayotgan muayyan g’oalar aniqroq ifodalanadi. Tasvirlanayotgan lirik yoki epik timsollar yorqinroq, jonliroq, jozibadorlik kasb etadi.

Tishlabki, soching o'rdung, ochkanda parishon qil,
Ofoq savodinda jon royihasin butrat.

Xo'sh, soch nega tishlab o'riladi? Sabab shuki, ayollar sochini o'rim qilishda faqat qo'l bilan emas tishlarni ham ishlatadigan bo'lsa soch o'rimi qattiqroq bo'lishligi ta'minladi. Birinchi misradagi sochning noz bilan turishligi ham asli shundan. Negaki, tarang qilib o'rilgan o'rimlarga inson tanasiga o'xshatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Endi bu tishlab o'rilgan qora sochingni ochishda shunday ochib qo'ymaki, uning tolasi butun tananga yoyilib undan taralayotgan xushbo'y hid butun taninga tarqalsin.

Ushbu baytda soch, o'rmoq, jon (tana) so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltiradi.

Tanosub- she'r baytlarida ma'no jihatidan bir- biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati tanosub deb ataladi

Kulbanga xayafshon kel zulfung qilib oshufta,
Anjum sipahin sindur, ofoq ulusin qo'zg'at.

Uyimga terlab turgan soching ila kel sababi men uning mushk hidiga ham oshiqman, shu kelishda yulduzlar lashkarini yengib butun olam xalqini uyg'ot demoqchi shoir bu o'rinda misralar majoziy ishqni tasvirlayotganini ham korishimiz mumkin.

Oraz quyoshin ochib, ashki qurug'an ko'zni
Ko'p hajrda yig'latding, bir vaslda ham yig'lat.

ushbu misralarni quyidagicha tahlil qilish mumkin. Yuzingning nuridan ko'zlarim qamashib, yig'idan o'zimni tiya olamadim, oqibat ko'zlarim yoshi qurib qoldi, endi o'zing kelib meni vasling ila quvontir.

Ushu baytdagi oraz ashk, ko'z so'zlari tanosub san'atini Hajr hamda vasl so'zlari esa tazod san'atini hosil qilmoqda. Tazod so'zi zid qo'yish qarshilantirish ma'nolarini ifodalaydi.

Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab topib,
Farhod ila Majnunga oshiqlik ishin o'rgat.

Ushbu baytda ey charx deya qilingan murojaat nido san'atini Farhod bilan Majnun esa Talmeh san'atiga asos bo'ladi. Talmeh- nazar solmoq. She'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san'atidir

Xoro tubig'a yotkung, yo'q sud agar yuz yil,
Ko'k atlasida ustida jismingni yotib ag'nat.

Xoro – tovlanib turadigan qimmatbaho ipak mato turi. Agar sen uning ostida yuz yil yot, lekin bundan senga zarracha naf yo'qdur. Undan ko'ra, osmon toqlarida jismingni eg, buk.

Bazm ichra Navoiy ko'p yig'lar esa, ey soqiy,

Hush eltkuvchi doru jomig'a aning chayqat.

Maqta`da Soqiyga murojaat bo`lganligi nido san`atini yuzaga keltiradi. Navoiy soqiy murojaat qilib bazm ichida men agar ko`p yig`laguvchi bo`lsam, jomni chayqab keyin qo`limga tutki, ostidagi quyqasidan baxra olayin.

G`azalning Navoiyvor tuzilishiga ko`ra asarlar mavzu va g`oyani bayon qilish, sharhlash va umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi qismlardan iborat.

Hazrat Navoiy ijodida xalqimizning botiniy qiyofasi, qalbi va tafakkuri to`la namoyon bo`ladi. Millat tarixida biron shoir mutafakkir bu qadar tarixiy yukni o`z zimmasiga ololmagan, va ulug` ko`lamli ishlarni bu qadar to`kis ado etolmagan. Navoiy adabiyotimizda ham, ma`naviyatimizda ham katta jarayonlarning boshlovchisi sifatida qad ko`targan. Shuning uchun ham uning ijodida biz uchun muhim bo`lgan barcha narsa bor.

Umuman, Navoiy bobomizning har bir ijod namunalari avlodlarga qoldirilgan ma`naviy, madaniy misli yo`q boyligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy "G`aroyib us-sig'ar" dostoni.
2. Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2006
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti

www.ziyouz.com

www.uzauz

www.ilm.uz